

IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI AXBOROTLARNI TUSHUNISHNING QIYOSIIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Jabbor Alisher Musirmon o'g'li

*O'ZMPU qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy
markazi bosh ilmiy xodimi*

Virtual olam ta'siridan yoshlarni himoyalash, ularning zamonaviy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish, inson ongiga ta'sir etuvchi salbiy axborot oqimining o'ziga xosliklarini ilmiy o'rganish, virtual olamga tobe bo'lishning psixologik, pedagogik sabab va oqibatlarini aniqlashtirish, shuningdek, virtual olamga bog'lanib qolishning salbiy oqibatlari yuzasidan, ta'lim muassasalarida keng qamrovli tashviqot ishlarini olib borish, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar turkumidan biridir.

N.A.Nosovning ta'rificha, virtual olam vositalari – bu yangi axborot texnologiyalari, axborot qidiruv va uzatish tizimlari, shubhasiz, yaqin kelajakda mutlaq erkinlik darajasiga yetadi. Ushbu keng ko'lamli axborot tuzilmalari bilan bir qatorda, unga aloqador yana bir tizim – virtual olam ta'siri ham yanada ortadi. Virtual olam – bu insonga ko'rish, eshitish, hidlash, teginish va boshqa hislar orqali taqdim etilgan texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyodir deb ta'kidlaydi E.D.Nevesenkoi. Virtual olamning ta'siri o'smirlar xulqida “simulyatsiya” reaksiyasi sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni bu o'smirlarning virtual olam hodisalariga taqlid qilishi yoki ularni o'zlashtirish bilan yakun topadi.

Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko'ra, vaqt-makon muhitini o'zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun'iy illyuziyali olamdur. I.A.Nikolaevning yozishicha, mazkur “olam” mazmunida inson o'z haqiqiy dunyosiga o'xshash yoki undan juda farq qiluvchi ko'plab taqlid qilinadigan tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Virtual olam vositalari o'yin-kulgi (ayniqsa, video o'yinlar), ta'lim va o'qitish (til o'rganish, ta'lim olish) va biznes

masalalari (masalan, virtual uchrashuvlar, yangi loyihalar) kabilarni o'z ichiga olgan texnologik majmualar to'plamidir.

“Web-canape” statistik saytida keltirilishicha, hozirgi kunda dunyo aholisining 56,4 foizi ochiq axborot tizimlaridan turli maqsadlarda foydalanishadi. Jumladan, 2021 yilning yanvar holatiga ko'ra, dunyodagi jami aholining (7,83 mlrd.) 66,6 %i mobil aloqadan, 59,5 %i internetdan va shuningdek 53,6 %i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, butunjahon pandemiya sharoitida ularning aksariyati, ayniqsa, yoshlar o'zlarining asosiy vaqtlarini ochiq axborot tizimlariga sarflashmoqda. Internetdan foydalanish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natijani qayd etgan mamlakatlar reytingida dastlabki o'rinni Filippin (10 s. 56 daq.) oxirini AQSh (7 s. 11 daq.) tashkil etgan. Quyi natijani esa, avvaliga Vetnam (6 s. 47 daq.) va oxirini Yaponiya (4 s. 25 daq.) mamlakatlari qayd etishgan.

So'ngi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham matn birliklari masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Belarus olimi N. Evchik o'zining ilmiy ishlarida tilning idrok etish bazasini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etadi. U o'zidan oldingi tadqiqotlarga tayangan holda nutqni tushunish quyidagi birliklar asosida amalga oshadi deb aytadi: 1)nutq mazmuniy birliklarining tipik bo'lgan ritmik-metodik strukturalari; 2)ritmik-metodik strukturalarga kiruvchi bo'g'inlar; 3)bu bo'g'inlarni tashkil etuvchi fonemalar¹. A. N. Leontev matnning qabul qilinishida matnning mazmuniy tarkibi bosqichma-bosqich sintez qilinar ekan, bu sintez nutqiy zanjirning idrok etish tahlili hamda bunga parallel ravishda kechuvchi mazmuniy tahlil asosida amalga oshadi deydi. Leontev matn mazmunini shunday aniqlaydi: mazmun har bir individning jamiyat tajribasini ijtimoiy kodlashtirgan shaklda o'zlashtirishdir. Mazmunni o'zlashtirish-bu individual faoliyat bilan jamiyat tajribasining muvofiqligini aniqlovchi vositadir².

Psixologik yondashuvda birlamchi obyekt inson bo'lib, matnning qabul qilinishida uning individual ruhiy holati, xususiyatlari ko'proq tahlil qilinadi. T.A. Drozdova matnni tushunishni psixologik tajribalar asosida tadqiq etib, uning

¹ Евчик Н.С. Перцептивная база языка. Минск., 2001. – С.14.

² Carrol David W. Psychology of language. California., 1998. – P.84-89.

<https://scientific-jl.com/>

darajalarini belgilaydi. Ammo bu darajalar har doim ham tushunish jarayonida yuzaga chiqavermasligini ta'kidlab o'tadi, ya'ni tajriba sinaluvchilarining 36% da tushunish jarayonining bosqichma-bosqich kechishi kuzatilgan bo'lsa, sinaluvchilarning qolganlarida tushunish aralash, betartib holatda amalga oshgan. Yuqorida keltirilgan bosqichlarning ayrimlari tushirib qoldirilgan, qisqartirilgan holatlar ham kuzatilgan. Kommunikativ vazifaning o'zgarishi tushunish va idrok etishning borishiga ta'sir qiladi. Drozdova tushunishning borishi sinaluvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liqligini aytadi³. Matnni idrok etishda kognitiv yondashuv matnni diskursning tashkiliy qismi sifatida ta'riflaydi.

Xulosa qilib aytganda, inson biror matnni o'qir ekan, shu matn mavzusiga aloqador bo'lgan bilimlari faollashadi va shu asosida matnni tushuna olishi osonlashadi. Kognitiv yo'nalish vakillari matnning mazmuniy strukturasi ko'proq e'tibor qaratadilar. Tahlil matniy baza, vaziyat modeli, dunyo va voqelik haqidagi bilim kabi tushunchalar asosida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Евчик Н.С. Перцептивная база языка. Минск., 2001. – С.14.
2. Carrol David W. Psychology of language. California., 1998. – P.84-89.
3. Дроздова Т.А. Психологические особенности понимания текста как процесса. М., 1985. – С.106-120.

³ Дроздова Т.А. Психологические особенности понимания текста как процесса. М., 1985. – С.106-120.
<https://scientific-jl.com/>